



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA UNING AVLODLARINING ISLOHOTLARI HAMDA MADANIY MA'RIFIY FAOLIYATI

Zokirjanov Mirzohid Shuhrat o'g'li

“Shon-sharaf” davlat muzeyi kichik-ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlarining islohotlari hamda madaniy-ma'rifiy faoliyati haqida bilib olishingiz mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur temuriylar sulolasining shavkatini jahonga yoygan hukmdorlardan biri hisoblanadi. Bobur Mirzo 1483-yil 14-fevral kuni Andijonda (hozirgi O'zbekiston Respublikasidagi Andijon viloyati) Temuriy hukmdor Umarshayx mirzo va Qutlug' Nigorxonim oilasida tavalud topgan.

Bobur Mirzo Umarshayxning o'g'li, Sulton Abu Said Mirzoning nevarasi, Sulton Muhammadning chevarasi, Mironshoh Mirzoning evarasi, xullas Amir Temur hazratlariga beshinchi avlod hisoblanadi. Bobur Mirzo o'z sulolasining manfaatlariga sodiq bo'lib u inqirozga yuz tutayotgan temuriylar saltanatining kuch qudratini yanada mustahkamlashga va Markaziy Osiyoda kuchli markazlashgan davlat qurishga harakat qilib 1496-1512-yillar davomida Bobur Mirzo Muhammad Shayboniylar xonga qarshi urush harakatlarini olib bordi. Bobur Shayboniylardan yengilgach 1504-yili Kobul shahriga borib u yerda hokimiyatni qo'lga oldi huddi shu yili Bobur Mirzoning onasi Qutlug Nigorxonim olamdan o'tdi. Bobur o'z maqsadlari yo'lida Kobulda lashkar tuzishga zo'r berdi va o'z saltanatini yaratishga intiladi. Zahiriddin Muhammad Boburning raqibi Muhammad Shayboniylar 1510-yili Eron shohi Ismoil Safaviy bilan kechgan jangda halok bo'ladi. Bu voqea sodir bo'lganidan keyin Bobur Mirzoning qalbida ulug' bobokaloni Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxti Samarqandni egallashga kirishadi. O'z maqsadiga



erishish yo'lida u Kobulda shoh Ismoilning elchisini yaxshi niyatda qabul qiladi. 1511-yili Bobur Mirzo Shoh Ismoil I Safaviyning ko'magi bilan Samarqand shahrini uchinchi bor qo'lga kiritadi. Biroq bu safar Samarqand ahli Boburni qo'llab quvvatlamaydi. 1512-yil 28-aprel kuni Ko'li Malikda bo'lib o'tgan jangda Bobur Mirzo Ubaydullo sultondan mag'lubiyatga uchraydi va Movarounnahrni butunlay tashlab chiqib, dastlab Afg'onistonga so'ngra Hindistonga o'z safdoshlari bilan o'tlanadi. 1519-1525-yillar davomida Bobur Hind zaminiga bostirib kirdi. Bir necha bor Hindiston hukmdorlarining armiyasi bilan Bobur Mirzo qo'shinlari o'rtasida janglar bo'lib o'tdi. 1526-yil 21-aprel kuni Panipat yalangligida Bobur Mirzo va Ibrohim Lo'diy o'rtasida kechgan jang Bobur Mirzoning porloq g'alabasi bilan yakunlandi. G'alabaga erishilgan yo'l: Boburning raqibi Ibrohim Lo'diyning 100 000 kishilik qo'shiniga qarshi chiqib o'zining 12 000 navkari hamda 20 tadan 24 tagacha bo'lgan to'plari bilan kurashganidir, jangovar fillarga qarama qarshi qurolangan to'plarni ishga solganligi bilan ifodalanadi. Jangda Ibrohim Lo'diy ham halok bo'ladi.

Buning natijasida 1526-yili Bobur Mirzo Agra shahrini egallaydi va Hindistonda yangi imperiya Boburiylar saltanatiga asos soladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z hukmronligining dastlabki yillarida Hindistonda o'zaro nizolashib yurgan mayda rojalarni yarashtirishga muvaffaq bo'ladi. O'z navbatida Bobur Mirzo davlatga sidqidildan xizmat qilgan amaldorlarga va harbiylarga jogir (yer egaligi) tarqatadi. Odatda jogir atamasi forschadan olinib "joy ol" degan ma'noni anglatadi. Boburiylar saltanati davrida Hindistonda keng tarqalgan islohot bu yer egaligi shakli hisoblangadi. Jogirning egasi jogirdor deb nomlangan. Jogirlardan olinadigan soliq davlat daromadining bir qismini tashkil etgan. Hindiston davlatining Bosh vaziri Javoharlar'l Neru o'zining "Hindistonning kashf etilishi"nomli asarida Bobur va uning nabirasi Akbar haqida shunday degan edi. "Bobur Uyg'onish davrining tipik vakili, u san'atni va madaniyatni sevgan, hayotdan



huzur ola bilgan, uning nabirasi Akbar esa yanada dilbarroq bo'lib, ko'p yaxshi fazilatlarga ega edi". Bobur Mirzo o'z saltanatining yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan bir qator islohotlarni amalga oshiradi.

Amir Temurdan so'ng temuriy shahzodalar ichida mukammal davlatchilik siyosatini olib borgan, buyuk Sohibqironga munosib voris bo'la olgan vorislaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Biroq boshqa shahzodalardan farqli o'laroq Boburning hukmronlik davri nihoyatda murakkab kechgan, unga o'z yurtida hukmronlik qilish nasib etmadi, biroq shunga qaramasdan yuksak sabr matonat, aql-idrokka tayanib o'zga yurtda bo'lsada o'z saltanatiga asos soldi. Bobur Mirzo va uning o'g'li Humoyunshoh hamda nabirasi Akbarshoh tomonidan XVI asrga kelib qudratli imperiyani vujudga keltirildi, bu imperiya Hindistonddek mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy jihatdan rivojlanishiga xizmat qildi. Bobur Mirzo o'z hukmronligining dastlabki yillaridanoq davlatga sadoqat bilan xizmat qilgan amaldorlarga, harbiylarga jogir tarqatgan. Bobur bundan tashqari ulug' bobosi Amir Temur hazratlarining davlatchilik siyosatini izchillik bilan davom ettirdi.

Ma'lumki Amir Temur va uning avlodlari davrida davlat va jamiyat hayotiga daxldor bo'lgan ma'salalarni hal qilish uchun qurultoy chaqirilgan.

O'sha davrda davlatning yumushlarini bajaradigan podshoh, vazirlar, ichkilar(hukmdorning yaqin insonlari), aminlar(soliq ishlarini nazorat qiluvchi mansabdorlar), faqix, a'lam (huquqni nazorat qiluvchi mansabdor shxas), baxshiiylar (kotib), yasoqiy(mayda soliq yig'uvchi amaldor), atka(otalik qiladigan shaxs), shixna(shaharlarda tartibni saqlovchi qorovul), omil, sadr, sadri a'zam, muftiy, qorovul, muhtasib, qorovulbegi, bakovul, bakovulboshi, chuxra, chuxraboshi, o'g'lonlar, xazinador, muhrdor, devonbegi, sohibi devon, asaslar(tungi qorovul), yasag'liq, qozilar, xonsalor, arzbegi, shayx ul islom, adolat amiri, dodxoh, qo'rchi, qopuchi(darvozabon), otaliq, miroxur, majlisnavis, qo'rboshi, qushchi, qushbegi kabi mansablar mavjud edi. Bu mansablardagi amaldorlarning har biri o'ziga yuklangan vazifalarni bajarganlar. Bobur va boburiylar



davriga kelib esa saltanat ishlarini quydagi asosiy vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilgan: Vakil - vakil lavozimi egasi podshoh tomonidan tayyinlanib uning nomidan ish ko'rish vakolatiga ega bo'lgan bosh vazir hisoblanadi. Bu lavozim asosan otasi vafotidan keyin 14 yoshli Akbar Mirzo taxtga chiqqanda unga otalik qilish uchun Bayramxon tayyinlangan. 1560-yili Akbarshoh ulg'arib hokimiyatni o'z qo'liga olgach, Bayramxon istefoga chiqarildi. Shu bilan vakil lavozimi o'zining ahamiyatini butunlay yo'qotdi. Vazir yoxud devonbegi asosan moliya ishlariga ma'sul hisoblangan, muhtasib mamlakat fuqarolarining axloq odob qoidalariga qanchalik rioya qilinayotganini nazorat qilib borgan, qozi ul quzzot adliya va sud - huquq ma'salalariga ma'sul bo'lgan. Azaldan Sharqda qadim zamonlardan oq harbiy sohaga katta e'tibor berilib kelingan o'rta asr Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi Boburiylar saltanatida ham harbiy tashkilot mavjud edi. Boburiylar imperiyasining qo'shini 5 ta harbiy qismdan iborat bo'lib ularga otliqlar, piyodalar, to'pchilar, to'fangdozlardan tarkib topgan edi.

Humoyun davrida imperiyada harbiy ishlar bilan shug'ullanish uchun alohida idora - yong'in boshqarmasi, harbiy to'pxona bo'limi, harbiy moliya ishlari boshqarmasi shug'ulangan. Akbarshoh hukmronligi yillarida qo'shin ustidan nazorat qilish uchun intendant (hozirda harbiy sud) lavozimi joriy qilindi. Harbiy lavozim egalari tabaqalana boshlagan, Mamlakat mustaqilligi uning xavfsizligi lashkarga bog'liq edi. Boburiy podshohlarning asosiy vazifasi mamlakarda adolatli ish yuritish edi. Podshoh oliy hukmdor bo'lgani bois sudlov hokimiyati ham unga tegishli edi. Sud ishlarida podshohdan keyingi o'rinda qozikalon turgan. Har bir viloyat va shaharlarga qozilar tayyinlanib asosan mulkni ajrim qilish va diniy ishlar muhokamasi bilan shug'ulanganlar, ularga muftiylar ham hamkorlik qilishgan. Eng yirik muammoli ishlar podshohning qabuliga olib kirilgan. Humoyun, Akbar, Jahongir va Shoh Jahonlar musulmon ruhoniylarining hurmatini joyiga qo'yganliklari bois ularning hurmatiga ham sazovor bo'lgan edilar. Bobur Mirzo ham ulug' ota bobolarining izidan borib o'z saltanatida



ilm-fan va madaniyatga ham e'tibor berdi. Boburiylar imperiyasining madaniyatida maorif, adabiyot, san'at va memorchilik, tasviriy san'at, musiqa va raqs san'ati muhim o'rin olgan. O'sha davr maorif tizimida shahar sadrining tavfsiyasiga binoan maktablar va madrasalarga qabul qilingan. Maorif ishlari davlat tomonidan qatiq nazoratga olingan. Adabiyotga nazar solsak o'sha davrda asarlar fors tilida yozilgan. Shular orasida Boburshohning "Mubayyin", Gulbadanbeginning "Humoyunnoma", Abulfazl Allomiyning "Oyni Akbariy" asarlaridir. Akbarshoh davrida barpo etilgan binolardan biri Agradagi Humoyun maqbarasi edi. Jahongir va Shoh Jahon davrlariga kelib ham me'morchilik va rasomchilik yaxshi rivojlandi. Jahongirshoh me'morchilikdan ko'ra ko'proq rasomchilik san'atiga qiziqqan. Jahongir Mirzo otasi va bobosining ishlarini davom ettirib saltanat ravnaqi yo'lida o'zining hissasini qo'shdi. Shoh Jahon davrida qurilgan binolardan biri bu Toj Mahaldir. Mana hozir bu bino o'zining savlatini yo'qotgan emas. Boburiy podshohlar musiqa san'atini juda ham sevganlar. O'zbekiston Respublikasi hukumatining tashabusi bilan yurtimizda 1993-yili Zahiriddin Muhammad Bobur tavaludining 510 yilligi butun dunyoda nishondi. Bobur tug'ilib o'sgan Andijon shahrida uning haykali o'rnatildi.

Xulosa qilib aytganda Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida muhim o'rin tutgan Boburshoh va uning avlodlarining tarixini o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borildi. Bugungi kunda bu borada keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Bobur va uning avlodlari tarixini o'rganish kelajakda O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Hozirda butun dunyoda global xavf -hatarlar bo'lib turgan bir paytda barchamiz ona Vatanimiz O'zbekistonning tarixini bilishimiz va o'rganmog'imiz lozim. Hozirgi kunda davlat siyosati darajasida so'ngi 10 yil ichida Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlarining tarixiga bir qator amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida aniq bo'ldiki Bobur va uning avlodlari ota tomondan Amir Temurga hamda ona tomondan Chingizxonga borib taqalishi aniqlandi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nuridinnov M. Boburiylar sulolasi T. Ma'naviyat 1994
2. Sotimov G. Boburiyzodalar T. Ma'naviyat 2003
3. O'ljayeva Sh. M. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning taraqqiy etishi T. 2005
4. Sharma L.P Boburiylar saltanati T. Ma'naviyat 1998
5. Mavlonov I.R. Boburiylar sulolasining Hindistondagi iqtisodiy boshqaruv tizimi T 2021
6. Sotimov G'. Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi Toshkent. Ma'naviyat 2018